

AVTOKREDITLARNI SUG'URTA QILISH TO'G'RSIDA

BOSH SHARTNOMA 01/24/1/044

Andijon sh.

“26” 09 2024-y.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining 2022-yil “25” fevraldagi 00037-sonli Sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi Litsenziyasi asosida o'z faoliyatini amalga oshiradigan, keyingi o'rinlarda “SUG'URTALOVCHI” deb nomlanuvchi “MY-INSURANCE” AЖ CT nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisi M.B.Ko'charov bir tomondan, keyingi o'rinlarda “SUG'URTA QILDIRUVCHI” deb nomlanuvchi, “Hamkorbank” ATB nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv Raisi B.T. Jo'rayev ikkinchi tomondan birgalikda “Tomonlar”, alohida xollarda “Tomon” deb atalib, Avtokreditlarni sug'urta qilish to'g'risidagi Bosh shartnomani (*bundan buyon matnda - mazkur Bosh shartnoma deb yuritiladi*) tuzdilar:

1. Mazkur Bosh shartnomaning predmeti O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354 (Shartnoma tuzish erkinligi) va 360 (Qo'shilish shartnomasi) moddalariga tartibida Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnoma shartlariga qo'shilishi hisoblanadi.
2. Sug'urta qildiruvchi va/yoki Qarz oluvchining topshirig'iga ko'ra, Sug'urtalovchi o'z zimmasiga, mazkur Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan 2024-yil “__” _____gi “Avtokredit” sug'urta qoidolari (bundan buyon matnda – “Sug'urta qoidolari” deb yuritiladi) shartlariga muvofiq, sug'urta hodisasi sodir bo'lishi oqibatida Naf oluvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi. Sug'urta qoidolari doirasida rasmiylashtirilgan sug'urta polislariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi Naf oluvchi hisoblanadi.
3. Sug'urta mukofotini to'lanishi, Qarz oluvchining Sug'urta qoidolari va sug'urta polisida yoki sug'urta polisida belgilangan shartlarda, tartibda va hajmda, Sug'urta qoidalariga qo'shilishiga so'zsiz va to'liq roziligini (akseptlaganini) bildiradi.
4. Har bir Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnomaga va Sug'urta qoidalariga qo'shilishi Sug'urtalovchi tomondan har bir avtokredit shartnomasi doirasida berilgan sug'urta polisi yoki sug'urta polisi bilan tasdiqlanadi.
5. Tomonlar Sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytidan, shuningdek mobil ilovalardan, elektron pochtdan va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanilgan holda sug'urta polislarini rasmiylashtirishga haqli.
6. Tomonlar, Sug'urta qoidalariga muvofiq elektron sug'urta polisining bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega. Sug'urta qoidalarida bo'lgan shartlar, shu jumladan sug'urta polisi matniga kiritilmagan shartlar, Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Qarz oluvchi uchun majburiydir.
7. Mazkur Bosh shartnomada nazarda tutilmagan boshqa shartlar, Bosh shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Sug'urta qoidolari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.
8. Mazkur Bosh shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi va taraflarning birini tashabbusi bilan ikkinchi tarafni 30 kun oldin ogoxlantirgan xolda bekor

qilinishi mumkin, biroq mazkur Bosh shartnoma bekor qilinishi uning amal qilgan davrida berilgan sugurta polislar muddati tugaguniga qadar amalda bo'ladi.

9. TOMONLAR MANZILI VA REKVIZITLARI

SUG'URTALOVCHI

"MY-INSURANCE" AЖ CT

MANZILI: Toshkent sh., Mirobod tumani, kichik Mirobod ko'chasi, 95-uy

BANK: "Hamkorbank" ATB bosh ofisi

MFO: 00083, **OKED:** 96220


INN: 207 002 342

X.R.: 20208000104786066011

Elektron pochta: info@myinsurance.uz

TEL.: 71-205-19-19

Boshqaruv raisi: M.B.Ko'charov



imzo

SUG'URTA QILDIRUVCHI

"Hamkorbank" ATB

MANZILI: Andijon sh., Bobur shoh ko'chasi, 85 uy

BANK: "Hamkorbank" ATB Bosh ofisi

MFO: 00083, **OKED:** 96120

INN: 200 242 936

X.R.: _____

Elektron pochta: muloqot@hamkorbank.uz

TEL.: 0 800 1 200 200

Boshqaruv Raisi: B.T. Jo'rayev



imzo

“Avtokredit” Sug‘urta qoidolari

“KELISHILGAN”

“Hamkorbak” ATB

Boshqaruv raisi

B.T.Jo‘rayev

(imzo va muhr o‘rni)

“26” 09 2024-yil

“TASDIQLAYMAN”

“MY-INSURANCE” AJ CT

Boshqaruv raisi

M.B.Ko‘charov

(imzo va muhr o‘rni)

“26” 09 2024-yil

“AVTOKREDIT” SUG‘URTALASH QOIDALARI

1-BO‘LIM. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Mazkur «Avtokredit» sug‘urtalash qoidolari (keyinchalik matnda – Sug‘urta qoidolari deb yuritiladi) "MY-INSURANCE" AJ CT (keyinchalik matnda – Sug‘urtalovchi deb yuritiladi) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, “Hamkorbak” ATB (keyinchalik matnda – Sug‘urta qildiruvchi / Naf oluvchi deb ataluvchi) mijozlariga Umumiy sug‘urta sohasining 3 va 14-klaslari bo‘yicha “Avtokredit” shartnomasi doirasida sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartib va shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Sug‘urta qoidalarida nazarda tutilgan shartlarga va/yoki qo‘shimcha kelishilgan ushbu Sug‘urta qoidalarining ajralmas qismi bo‘lgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganida Sug‘urta qildiruvchiga (Qarz oluvchiga yoki mazkur Sug‘urta qoidolari foydasiga tuzilgan boshqa shaxsga) sug‘urta tovonini to‘lash orqali yetkazilgan zarar o‘rnini quyida ko‘rsatilgan tartibda va hajmda qoplash majburiyatini oladi, shu shart bilanki, bunda Sug‘urta qildiruvchi ushbu Sug‘urta qoidalarda ko‘rsatilgan miqdorda, tartibda va muddatda sug‘urta mukofotini to‘lash majburiyatini oladi.

1.3. Quyidagilar sug‘urta obyektlari hisoblanadi:

- ✓ Transport vositasini xarid qilish uchun Qarz oluvchiga (jismoniy/yuridik/o‘z o‘zini band qilgan shaxsga yoki tadbirkorlik subyektiga) berilgan qarzning (kreditning) qaytarilishini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan Sug‘urta qildiruvchining mulkiy manfaatlarini;
- ✓ garovga qo‘yilgan sug‘urtalangan transport vositasiga (TV) egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish bilan bog‘liq Qarz oluvchining mulkiy manfaatlarini.

Bunda mazkur mulkiy manfaatlariga ushbu Sug‘urta qoidalarida sanab o‘tilgan tavakkalchiliklardan bevosita yuz bergan sug‘urta hodisasi yuzaga kelganida zarar yetkazilishi mumkin.

1.4. Sug‘urta qildiruvchi / Qarz oluvchi Sug‘urtalovchiga taqdim etgan hujjatlar va ma‘lumotlar (garov va kredit, qarz shartnomalari nusxalari, Sug‘urta qildiruvchining / Qarz oluvchining va hokazolarning hujjatlari) ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan berilgan tegishli Sug‘urta polisining ajralmas qismi ekanligini, shuningdek ular ko‘rsatilgan hujjatlar va ma‘lumotlar ishonchli hamda haqiqatga to‘g‘ri keluvchi ma‘lumotlarga ega ekanligini tasdiqlaydilar.

2-BO‘LIM. ATAMALAR

Ushbu Sug‘urta qoidalarida quyidagi mazmundagi atamalardan foydalaniladi:

2.1. **Kredit (qarz) shartnomasi** – ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan rasmiylashtirilgan Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo‘lib, unga ko‘ra Sug‘urta qildiruvchi Qarz oluvchiga Kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda pul mablag‘larini (kredit) taqdim etish majburiyatini oladi, Qarz oluvchi esa olingan pul mablag‘larini o‘z vaqtida qaytarish va u bo‘yicha foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.

2.2. **Sug‘urta polisi/elektron sug‘urta polisi** – ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan Sug‘urta mukofoti to‘langanidan keyin Sug‘urta qildiruvchiga beriladigan, hamda Sug‘urta qoidolari bo‘yicha Sug‘urta qildiruvchining majburiyatlari kuchga kirganini tasdiqlovchi hujjat.

“Avtokredit” Sug‘urta qoidalari

2.3. **Sug‘urta puli** – ushbu Sug‘urta qoidalari shartlariga ko‘ra sug‘urta hodisasi yuz berganida Sug‘urta qildiruvchi oldida Sug‘urtalovchi majburiyatlarining eng ko‘p hajmlarini ifodalaydigan pul mablag‘lari summasi.

2.4. **Sug‘urta hodisasi** – amalda yuz bergan va ushbu Sug‘urta qoidalarida nazarda tutilgan hodisa bo‘lib, u yuz berishi bilan Sug‘urtalovchining ushbu Sug‘urta qoidalari shartlariga muvofiq sug‘urta tovonini to‘lash majburiyati yuzaga keladi.

2.5. **Sug‘urta tovon** – sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi natijasida Sug‘urta qildiruvchiga yetkazilgan zararni qoplash hisobiga Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta puli chegarasida Sug‘urta qildiruvchiga to‘lanadigan pul mablag‘lari.

2.6. **Sug‘urta mukofoti** – sug‘urta uchun to‘lov bo‘lib, uni Sug‘urta qildiruvchi va/yoki Qarz oluvchi ushbu Sug‘urta qoidalarida bayon qilingan tartibda va muddatlarda Sug‘urtalovchiga to‘lashi shart.

2.7. **Sug‘urta davri** – ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan sug‘urta amal qiladigan vaqt davri bo‘lib, Sug‘urta davrining boshlanishi va tugashi vaqti Sug‘urta polisida ko‘rsatiladi.

2.8. **Kreditning maqsadli ishlatilishi** – Qarz oluvchi kredit mablag‘lari evaziga O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi yoki ikkilamchi bozordan transport vositalarini sotib olishi.

2.9. **Sug‘urta qilingan transport vositasi** (keyinchalik matnda va boshqa bandlarda TV deb yuritiladi) – Qarz oluvchi nomiga hujjat bilan rasmiylashtirilgan va kredit mablag‘lari hisobiga xarid qilingan transport vositasi bo‘lib, unga nisbatan ushbu Sug‘urta qoidalari shartlariga muvofiq sug‘urta qamrovi amal qiladi.

2.10. **Qarz oluvchi** – Sug‘urta qildiruvchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirgan, kredit shartnomasiga asosan Sug‘urta qildiruvchidan kredit olgan, hamda kreditdan Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq foydalandigan shaxs.

3-BO‘LIM. SUG‘URTA HODISALARI

3.1. Ushbu Sug‘urta qoidalari bo‘yicha quyidagi hodisalar sug‘urta hodisasi bo‘lib hisoblanadi:

a) Qarz oluvchi tomonidan Kredit shartnomasida nazarda tutilgan shartlar va muddatlarga muvofiq kreditning qaytarilmasligi. Sug‘urtalash davri davomida Qarz oluvchi tomonidan kredit bo‘yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlar summasining so‘ndirib borilishi bilan Kompaniyaning kredit qaytarilmasligi tavakkalchiligini sug‘urtalash bo‘yicha majburiyatlari kamayadi;

b) sug‘urta qilingan transport vositasini quyidagilar natijasida yo‘qotilishi yoki shikastlanishi:

- yong‘in, portlash, chaqin urishi; suv toshqini, bo‘ron, dovul, jala, do‘l, sel; zilzila, o‘pirilish, yer ko‘chishi;

- yo‘l-transport hodisalari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida sodir bo‘lganlar;

- predmetlarning urilishi/tushib ketishi;

- o‘g‘irlanishi, TV olib qochilganida olib qochish fakti;

- uchinchi shaxslarning huquqbuzarlik harakatlari;

3.2. Ushbu Sug‘urta qoidalari 3.1-bandining “a” kichik bandi bilan nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi munosabati bilan sug‘urta tovonini to‘lash yuzasidan Sug‘urtalovchining majburiyatlari Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sanadan e‘tiboran boshlanadi va Qarz oluvchi tomonidan TV tegishli tartibda garovga qo‘ymaguniga qadar ya‘ni olingan kredit uchun ta‘minot sifatida garov shartnomasini rasmiylashtirilmaguniga qadarli amalda bo‘ladi.

3.3. Ushbu Sug‘urta qoidalari 3.1-bandining “b” kichik bandi bilan nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi munosabati bilan sug‘urta tovonini to‘lash yuzasidan Sug‘urtalovchining majburiyatlari Qarz oluvchi tomonidan TV belgilangan tartibda olingan kredit mablag‘i uchun ta‘minot sifatida garov shartnomasi rasmiylashtirilgan paytdan e‘tiboran boshlanadi va Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta davri o‘tishi bilan tugaydi.

4-BO‘LIM. ISTISNOLAR

4.1. Ushbu Sug’urta qoidalari bo’yicha quyidagi hollarda sug’urta hodisasi deb e’tirof qilinmaydi va Sug’urtalovchi sug’urta tovonini to’lashdan ozod qilinadi:

a) Sug’urtalovchi ushbu Sug’urta qoidalari asosida Sug’urta shartnomasi (polis)ni tuzish haqida qaror qabul qilishi uchun asos bo’lgan ma’lumotlarni Sug’urta qildiruvchi taqdim etgan holda sug’urta tavakkalchiligi to’g’risida mulohaza yuritish uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan holatlar haqida atayin noto’g’ri ma’lumotlarni xabar qilgan taqdirda;

b) agar sug’urta hodisasi Sug’urta qildiruvchining, Qarz oluvchining yoki Haydovchining sug’urta hodisasi yuzaga kelishiga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida yuz bergan bo’lsa, bundan ular tomonidan fuqarolik burchi yoki Sug’urta qildiruvchining, Qarz oluvchining yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog’lig’i, or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog’liq harakatlar mustasno;

v) agar Sug’urta qildiruvchi Sug’urtalovchini sug’urta hodisasi yuzaga kelganligi haqida habardor qilmagan bo’lsa;

g) agar Sug’urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug’urtalovchining sug’urta hodisasi sabablari va holatlarini aniqlashiga, shuningdek zarar miqdorini aniqlashiga to’g’ridan to’g’ri to’sqinlik qilgan bo’lsa;

d) Sug’urtalovchi tomonidan Sug’urta qildiruvchining aybi bilan subrogatsiya tartibida Qarz oluvchiga talab qo’yish mumkin bo’lmaganida;

4.2. Sug’urta quyidagilar bilan bog’liq hodisalarga nisbatan tadbqiq etilmaydi:

a) ushbu Sug’urta qoidalariga asosan sug’urta amal qilishi davrida Sug’urta qildiruvchi tomonidan Qarz oluvchining mol-mulkini Sug’urtalovchi bilan dastlabki tarzda kelishmagan holda o’zganing ixtiyoriga qonuniy tarzda o’tkazganida;

b) kredit summasiga hisoblangan har qanday penya, jarimalar, neustoyka hisoblash, foyda yoki naf olmaslik, bank komissiyasi va boshqalar (Qarz oluvchi tomonidan kreditning asosiy qarz va hisoblangan foizlarning so’ndirilmagan qismi bundan mustasno);

v) Kredit shartnomasi rasmiylashtirilganida / kredit berilganida Sug’urta qildiruvchi yoki uning vakillari tomonidan O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga rioya qilmaslikning bevosita yoki bilvosita oqibatida Sug’urta qildiruvchining zararlari.

4.3. Ushbu Sug’urta qoidalariga ko’ra sug’urta qilingan TV ga yetkazilgan, quyidagi holatlarda yuz bergan zararlar qoplanmaydi:

a) sug’urta qilingan TV ni alkogol va/yoki toksik va/yoki narkotik moddalar ta’sirida mast holatda va/yoki boshqa turdagi mastlik holatida boshqarish

v) sug’urta qilingan TV ni ekspluatatsiya qilish yoki boshqarish ishonib topshirilgan Qarz oluvchi/Haydovchi yoki har qanday shaxslar tomonidan qalloblik harakatlari. Mazkur band qarz oluvchi tomonidan TVni bankka garovga taqdim qilmasdan sotib yuborgan holatlarda qo’llanilmaydi;

g) sug’urta qilingan TV ni O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq transport vositasini boshqarishga huquqi va ruxsati (haydovchilik guvohnomasi, ishonchnoma va boshqalar) bo’lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi natijasida YTX bo’lishi. Mazkur bandning qoidalari sug’urta qilingan TV o’g’irlangan taqdirda qo’llanilmaydi.

4.4. Yo’lning notekisliklari yoki yomon holati, o’tkir predmetlarni bosish va boshqalar natijasida kelib chiqqan g’ildirak disklarining va/yoki shinalarining shikastlanishi, agar ularning shikastlanishi sug’urta qilingan TV ni shikastlanishini yoki nobud bo’lishini keltirib chiqargan xollari bundan mustasno.

Ushbu Sug’urta qoidalari shuningdek sug’urta qilingan TV ga quyidagilar oqibatida yetkazilgan to’liq yoki qisman zararni qoplamaydi:

a) harbiy hujum akti, harbiy harakatlar, fuqarolar urushi;

b) isyon, milliy tushdagi ish tashlashlar;

“Avtokredit” Sug‘urta qoidalari

v)shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik harakati;

4.5.Maxsus istisnolar:

Sug‘urta tovonni miqdorini aniqlashda sug‘urta hodisasi natijasida sug‘urta qilingan TV ga yetkazilgan zarar miqdoridan quyidagilar chiqarib tashlanadi:

a)sug‘urta qilingan TV ning, jumladan uning alohida detallari va bo‘g‘imlarining ularni ekspluatatsiya qilinishi va/yoki bekor turishi oqibatida tabiiy eskirishi, biroq sug‘urta qilingan TV ning tabiiy eskirishi oqibatida yuz bergan uning nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi ushbu Sug‘urta qoidalari bo‘yicha qoplanadi;

b)sug‘urta qilingan TVda ishlab chiqaruvchi korxonaning braki

v)Qarz oluvchining sug‘urta qilingan TV ni takomillashtirish bilan bog‘liq xarajatlari.

4.6.Sug‘urtalovchi shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ham sug‘urta tovonini to‘lashdan ozod qilinadi.

5-BO‘LIM. SUG‘URTA PULI VA SUG‘URTA MUKOFOTI

5.1. Sug‘urta qoidalarining:

- 3.1-bandi “a” kichik bandi bo‘yicha Sug‘urta puli miqdori Sug‘urta qildiruvchi tomonidan Qarz oluvchiga ajratilgan kreditning (qarzning) 130% miqdorida belgilanadi.

- 3.1-bandi “b” kichik bandi bo‘yicha Sug‘urta puli miqdori Sug‘urta qildiruvchi va Qarz oluvchi Sug‘urtalovchiga taqdim etadigan bank elektron dasturini birlamchi ma‘lumotnomasiga ko‘ra belgilanadi. Sug‘urta puli sug‘urtaga qabul qilinayotgan TV ning Sug‘urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo‘lsa, sug‘urta hodisasi yuz berganida Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga / Qarz oluvchiga u ko‘rgan zararni O‘zbekiston Respublikasi FKning 936-moddasiga asosan sug‘urta pulining sug‘urta qiymatiga bo‘lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplaydi.

5.2. Sug‘urta qoidalarining:

- 3.1-bandi “a” kichik bandi bo‘yicha Sug‘urta mukofoti sug‘urta amal qilishining har bir yiliga 2-ilovaga asosan belgilangan sug‘urta tarifi doirasida hisoblanadi.

- 3.1-bandi “b” kichik bandi bo‘yicha Sug‘urta mukofoti sug‘urta amal qilishining har bir yiliga 2-ilovaga asosan belgilangan sug‘urta tarifi doirasida hisoblanadi.

5.3.Mazkur Sug‘urta qoidalari bo‘yicha umumiy Sug‘urta mukofoti miqdori, Sug‘urta qoidalarining 5.1 va 5.2 bandlariga ko‘ra aniqlangan sug‘urta mukofotlarini qo‘shish orqali hisoblanadi 2-ilovaga asosan kelishilgan maxsus shartga binoan kelishilgan sug‘urta tariflaridan ortiq bo‘lishi mumkin emas.

5.4.Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchining bank elektron dasturidagi birlamchi ma‘lumotnomasi (kredit shartnomasini tuzish uchun taqdim etiladigan xujjatlar) Sug‘urtalovchiga taqdim etgan kundan e‘tiboran 5 (besh) kun ichida Sug‘urta mukofoti bir yo‘la va to‘liq hajmda to‘lanishi lozim.

6-BO‘LIM. SUG‘URTA SHARTNOMASI (POLIS)NI TUZISH TARTIBI VA SUG‘URTANING AMAL QILISHI MUDDATI

6.1. Ushbu Sug‘urta qoidalariga ko‘ra Sug‘urta shartnomasi Sug‘urta polisining aslini Sug‘urta qildiruvchiga va uning nusxasini Qarz oluvchiga taqdim etish orqali tuziladi. Sug‘urta polisi mazkur Qoidalarining 1-ilovasida kelishilgan namunaviy shaklda Sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng rasmiylashtiriladi.

6.2. Ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini to‘lash yuzasidan majburiyatlari Sug‘urta mukofoti (uning birinchi badali) to‘langan kundan kuchga kiradi va Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan Sug‘urta davri davomida amalda bo‘ladi.

6.3. Sug‘urta polisining asli yaroqsiz holga kelganda yoki u yo‘qotilganda, uning dublikati Sug‘urta qildiruvchining/Qarz oluvchining arizasiga asosan Sug‘urtalovchi tomonidan 1 (bir) ish kuni ichida beriladi, va yaroqsiz bo‘lgan yoki yo‘qotilgan Sug‘urta polisi bo‘yicha Sug‘urtalovchi javobgarlik olib borishdan (majburiyatlaridan) ozod qilinadi.

“Avtokredit” Sug‘urta qoidalari

6.4. Qarz oluvchi qarz bo‘yicha Sug‘urta qildiruvchi oldidagi barcha majburiyatlarini bajarib, sug‘urta qilingan TV ning garovini bekor qilganda va Sug‘urta polisini bekor qilish to‘g‘risida Sug‘urtalovchiga tegishli talab bildirmaganda, Sug‘urta polisi unda ko‘rsatilgan sug‘urta davri tugaguniga qadar amalda bo‘ladi va ushbu davr ichida sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Qarz oluvchi – Sug‘urta qildiruvchi yoki sug‘urta tovonini olish vakolatiga ega Naf oluvchi hisoblanadi.

6.5. Ushbu Sug‘urta qoidalaridan kelib chiqadigan sug‘urta – Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan Sug‘urta davri boshlangan kunda va undan keyin yuz bergan sug‘urta hodisalariga nisbatan tadbir etiladi va Sug‘urta davri davomida amalda bo‘ladi.

6.6. Ushbu Sug‘urta qoidalari asosida sug‘urta va shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirishda va ro‘yobga chiqarishda tomonlar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan talablarga rioya qilgan holda elektron tarzda hujjatlar (polislar va boshqalar) almashinuviga yo‘l qo‘yiladi.

7-BO‘LIM. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan sug‘urta amal qilishi davrida:

7.1.1. Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) ushbu Sug‘urta qoidalariga asosan sug‘urta amal qilishi davrida tekin asosida ushbu Sug‘urta qoidalari bo‘yicha maslahatlar olish;

b) sug‘urta hodisasi yuzaga kelganidan keyin ushbu Sug‘urta qoidalari shartlariga rioya qilgan holda Sug‘urtalovchidan ushbu Sug‘urta qoidalari bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni talab qilish.

v) sug‘urta polisi yo‘qotilganda, uning dublikatini olish;

g) taqdim etilgan hujjatlar va Sug‘urta qoidalarida ko‘rsatilgan muddatlarda sug‘urta dalolatnomasini tuzish va Sug‘urta tovonini amalga oshirish yoki Sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish sabablarini ko‘rsatgan holda Sug‘urtalanuvchiga yozma ravishda rad javobini olish.

7.1.2. Sug‘urta qildiruvchi quyidagilarni bajarishi shart (majburiyatlar):

a) Sug‘urtalovchiga Kredit shartnomasi shartlarida ehtimol qilingan o‘zgarishlar haqida, shu jumladan kredit majburiyatida shaxslarning o‘zgarganligi haqida xabar berishi;

b) Sug‘urtalovchining so‘rovi bo‘yicha sug‘urta hodisasi yuzaga kelganligi faktini va holatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan har qanday ma‘lumotlarni yoki axborotni xabar qilishi;

v) yuridik manzili va bank rekvizitlari o‘zgargan taqdirda, bu haqda Sug‘urtalovchiga xabar berishi;

g) Qarz oluvchi bilan u TV ni olgan paytidan e‘tiboran, 1 (bir) oy ichida garov shartnomasini tuzish bo‘yicha qarz oluvchini ogoxlantirish, garov shartnoma nizosiz xolda tuzilgan taqdirda Sug‘urtalovchiga taqdim etish;

d) Qarz oluvchiga berilgan, garovga qo‘yilgan TV haqida to‘liq axborotni yoki ma‘lumotnomani (TV modeli, markasi, rangi, kuzovi va dvigatel raqamini) taqdim etishi;

ye) Kompaniyaga ko‘rilgan zarar fakti va miqdorini aniqlashga imkon beradigan hujjatlarni (Sug‘urta qildiruvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida kreditni so‘ndirish hisobiga amalga oshirilgan to‘lovlar miqdori haqida ma‘lumotnoma, kredit shartnomasi amal qilish davrida pul mablag‘lari harakati haqida bank ko‘chirmasi, kredit Qarz oluvchining bankrotligini tasdiqlovchi hujjat, pasport, o‘lim guvohnomasi, kredit shartnomasi, garov shartnomasi.) taqdim etishi shart.

7.1.3. Qarz oluvchi quyidagilarni bajarishi shart (majburiyatlar):

a) olingan TVni u xarid qilingan paytdan e‘tiboran ikki hafta ichida va olingan kreditning qaytarilishini ta‘minlash uchun Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchiga garovga taqdim etishi hamda keyinchalik garov shartnomasining nusxasini Sug‘urtalovchiga taqdim etishi;

b) ushbu Sug‘urta qoidalari tuzilganida Sug‘urtalovchiga xabar qilingan holatlarda o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan sezilarli o‘zgarishlar haqida Sug‘urtalovchiga yozma xabar berishi, shuningdek Sug‘urtalovchiga barcha hujjatlar va dalillarni berishi hamda subrogatsiya va regress tartibida

“Avtokredit” Sug‘urta qoidalari

Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqini Sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni unga xabar qilishi;

v) Sug‘urtalovchiga ko‘rilgan zararlar fakti va miqdorini aniqlashga imkon beradigan hujjatlarni taqdim etishi shart.

7.1.4. Sug‘urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug‘urta qaltisligi oshishini keltirib chiqaruvchi holatlar yuzaga kelganida ushbu Sug‘urta qoidalari shartlarini o‘zgartirishni yoki qaltislik oshishiga mutanosib ravishda qo‘shimcha sug‘urta mukofotini to‘lashni talab qilish;

b) Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan ushbu Sug‘urta qoidalarida va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o‘z majburiyatlari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish. (7.1.2 ye), z) va 7.1.3 a) bandlari bundan mustasno)

7.1.5 Sug‘urtalovchi quyidagilarni bajarishi shart (majburiyatlar):

a) Sug‘urta qildiruvchiga/Qarz oluvchiga ushbu Sug‘urta qoidalari bo‘yicha maslahatlar berishi;

b) ushbu Sug‘urta qoidalarida belgilangan muddatlarda va tartibda Sug‘urta polisini berishi;

v) sug‘urta hodisasi yuzaga kelganida Sug‘urta qildiruvchiga/Qarz oluvchiga ushbu Sug‘urta qoidalarida belgilangan muddatlarda va tartibda sug‘urta tovonini to‘lashi;

g) Sug‘urta qildiruvchi, Qarz oluvchi va ularning mulkiy holati haqidagi ma’lumotlarni ma’lum qilmasligi shart, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Qarz oluvchi Sug‘urtalovchi tomonidan talab qilinayotgan hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etishida Sug‘urta qildiruvchiga yordam berishi shart.

7.2. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan barcha zarur xujjatlar asosida sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi fakti Kompaniya tomonidan tan olingan taqdirda, Sug‘urtalovchi tomonidan besh kun ichida sug‘urta hodisasi to‘g‘risida dalolatnoma tuziladi, unda barcha olingan axborot ko‘rsatiladi, to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta tovonining miqdori aniqlanadi. Sug‘urta hodisasi to‘g‘risida dalolatnoma Sug‘urtalovchi, Sug‘urta qildiruvchining vakillari va Qarz oluvchi tomonidan imzolanadi.

7.3. Ushbu Sug‘urta qoidalarining 7.1.5-bandlarini bajarishga taalluqli ma’lum harakatlarga nisbatan so‘rovlarga/kelishuvlarga doir barcha xabarlar/javoblar ushbu Sug‘urta qoidalarini tuzishda Sug‘urtalovchiga xabar berilgan holatlarda sezilarli o‘zgarishlarni so‘rov olingan/aniqlangan kundan e’tiboran besh ish kunidan kechikmay amalga oshirilishi kerak.

8-BO‘LIM. SUG‘URTA DA‘VOSINI KO‘RIB CHIQISH

8.1. Ushbu Sug‘urta qoidalari doirasida sug‘urta tovonini to‘lash haqida Sug‘urtalovchiga qo‘yiladigan talabga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan, 3.1-bandining “a” kichik bandida ko‘rsatilgan hodisa yuz berganida Sug‘urta qildiruvchi quyidagilarni bajarishi shart:

-Sug‘urtalovchiga hodisa yuz berganligi haqida u ma’lum bo‘lgan vaqtdan e’tiboran 30 kalendar kunidan kechikmay ariza berishi;

-Sug‘urtalovchiga zarar yetkazilganligi fakti va miqdorini aniqlashga imkon beruvchi hujjatlarni (Sug‘urta qildiruvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida kreditni so‘ndirish hisobiga amalga oshirilgan to‘lovlar miqdori haqida solishtirma dalolatnomalarini (agar qarz oluvchi imzolashni xoxlamasa unda dalolatnoma bir tomonlama imzolanib, qarzдор imzolashdan bosh tortilganligi yuzasidan aloxida xujjat rasmiylashtirgan xolda taqdim etilishi mumkin), Qarz oluvchi tomonidan kreditni so‘ndirish hisobiga o‘tkazilgan pul mablag‘lari haqidagi to‘lov topshiriqlarining nusxalarini) taqdim etishi shart.

Qarz oluvchi Sug‘urtalovchi tomonidan talab qilinadigan hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etishida Sug‘urta qildiruvchiga yordam berishi shart.

8.2. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan 3.1-bandining “a” kichik bandi bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, Sug‘urta qildiruvchiga u tomondan ariza topshirilgan kundan e’tiboran 15 (o‘n besh) kun ichida rad etish sabablari asoslangan holda yozma bildirishnoma yuboriladi.

“Avtokredit” Sug‘urta qoidalari

8.3. Ushbu Sug‘urta qoidalari doirasida Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan, 3.1-bandning “b” kichik bandida ko‘rsatilgan hodisa yuz berganida Qarz oluvchi/Haydovchi:

- yuz bergan hodisa haqida vakolatli organlarga (yo‘l harakati xavfsizligi organlariga, yong‘in xavfsizligi, ichki ishlar organlariga va boshqalarga) xabar berishi, bunda YTH ishtirokchilari “yevroprotokol”ga asosan ish tutgan holatlar mustasno;

- imkon bo‘lishi bilanoq, sug‘urta qildiruvchiga ma‘lum bo‘lgan kundan 15 (o‘n besh) kalendar kunidan kechikmay bu haqda Sug‘urtalovchiga bog‘lanish usullaridan foydalangan xolda xabar berishi va hodisa yuz berganidan keyin besh bank ish kuni ichida hodisa sodir bo‘lgan joy, sabablari va holatlari ko‘rsatilgan holda Sug‘urtalovchiga yozma bildirishnomani yuborishi shart.

Sug‘urta tovonini to‘lash haqidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

a) sug‘urta polisi;

b) haydovchilik guvohnomasining nus‘hasi (zarur holatlarda sug‘urtalovchining talabiga asosan asl hujjat taqdim qilinadi);

c) transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnomaning nus‘hasi (zarur holatlarda sug‘urtalovchining talabiga asosan asl hujjat taqdim qilinadi) yoki agar TV hali ro‘yxatdan o‘tkazilmagan bo‘lsa, qayt etilgan dillerning schyot-ma‘lumotnomasi;

d) ishonchnoma yoxud transport vositasini boshqarish huquqini taqdim etuvchi boshqa hujjat;

e) hodisa sabablari va holatlari ko‘rsatilgan holda yuz bergan hodisa holatlari yuzasidan tekshirishni o‘tkazishga haqli bo‘lgan vakolatli organlardan olingan materiallar (jinoyat ishi yoki ma‘muriy ish qo‘zg‘atilganligi to‘g‘risidagi qaror, haydovchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi (xaydovchi mast emasligi xakidagi) ma‘lumotnoma, haydovchilar pasportlarining nusxalari);

f) tuzilgan xabarnomaning (yevroprotokol) bir asl nusxasi va haydovchining hushyor yoki mastlik holati tekshirilgani to‘g‘risida dalolatnomaning nusxasi agarda yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgani to‘g‘risida xabarnoma tuzilgan bo‘lsa;

g) baholash faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan baholash tashkiloti tomonidan barcha ishlar ro‘yxati, ehtiyot qismlar va materiallar ko‘rsatilgani holda tuzilgan moddiy zararni baholash kalkulyatsiyasi, bunda uni o‘tkazilishi bilan bog‘liq xarajatlar Sug‘urtalovchi tomonidan qoplanmaydi;

Ushbu Sug‘urta qoidalarining 8.3.-bandi “a” - “ye” kichik bandlarida nazarda tutilgan hujjatlar ulardan ko‘chirma nusxa olinganidan va ularning asl ekanligi tasdiqlanganidan keyin Sug‘urta qildiruvchiga (yoki taqdim qilgan boshqa shaxsga) qaytarib beriladi.

Sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha davo ishi Qarz oluvchi arizani Sug‘urta qoidalarining 8.3. bandida ko‘rsatilgan xujjatlarni ilova qilgan xolda taqdim etgan sanadan e‘tiboran 15 (o‘n besh) kalendar kuni ichida ko‘rib chiqiladi. Agarda Qarz oluvchi arizani Sug‘urta qoidalarining 8.3.-bandida ko‘rsatilgan hujjatlarni to‘liq taqdim etmasa, 3 (uch) ish kuni ichida Sug‘urta qildiruvchiga Qarz oluvchiga Sug‘urtalovchi ushbu hujjatlarni taqdim etish to‘g‘risida yozma so‘rovnoma taqdim etadi.

8.4. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan yuz bergan har qanday yo‘qotishlar va/yoki shikastlanishlar haqida xabar berilganida Sug‘urtalovchi da‘volarni ko‘rib chiqish va yuz bergan hodisaning turi, sabablari va holatlarini to‘liq o‘rganish uchun o‘z xodimini yoki boshqa shaxsni yo‘llashga haqli.

8.5. Barcha zarur hujjatlar olinganidan va mazkur hodisaga taalluqli barcha holatlar o‘rganilganidan keyin Sug‘urtalovchi tomonidan yuz bergan hodisani sug‘urta hodisasi deb topish olish yoki tan olmaslik haqidagi qaror chiqariladi.

8.6. Sug‘urtalovchining sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish yoki to‘lash haqidagi qarori Sug‘urta qildiruvchiga uning sug‘urta tovonini to‘lab berish haqidagi yozma murojaatidan keyin o‘n besh kundan kechikmay xabar qilinishi va rad etilganida rad etishning asoslangan sabablarini ichiga olishi kerak.

8.7. Agar sug‘urta hodisasi yuzaga kelganligi fakti bo‘yicha fuqarolik ishi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lash haqidagi masalani hal etishni vakolatli organlar tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi paytiga qadar kechiktirish huquqiga ega

8.8. Sug‘urta hodisasi yuz berganligini, shuningdek unga yetkazilgan zararlarni isbotlash Sug‘urta qildiruvchi va Qarz oluvchi zimmasiga yuklatiladi.

9-BO‘LIM. SUG‘URTA TOVONINI TO‘LASH

9.1. Ushbu Sug‘urta qoidalarining 3.1-bandi “a” kichik bandida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganida sug‘urta tovonini Sug‘urta qildiruvchiga Qarz oluvchining kreditning asosiy qismi va hisoblangan foizlar bo‘yicha Sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta amal qilishi davrida yuzaga kelgan to‘lov muddati o‘tib ketgan qarzdorligi summasidan oshmaydigan miqdorda to‘lanadi.

9.2. Ushbu Sug‘urta qoidalarining 3.1-bandi “b” kichik bandida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganida sug‘urta tovonini Qarz oluvchi yoki Sug‘urta qildiruvchiga (oxirgisining tanloviga ko‘ra) quyidagi shartlarga rioya qilingan holda to‘lanadi:

- Sug‘urta qilingan TV o‘g‘irlanganida yoki to‘liq nobud bo‘lganida – ushbu Sug‘urta qoidalarini doirasida ilgari to‘langan barcha sug‘urta to‘lovlarini (agar to‘lovlar amalga oshirilgan bo‘lsa va) chiqarib tashlangan holda sug‘urta puli doirasida;

- Sug‘urta qilingan TV shikastlanganida – baholash faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega baholash tashkiloti tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholashga doir naryad-buyurtma/kalkulyatsiya summasida, ammo ushbu Sug‘urta qoidalarini shartlariga va ushbu Sug‘urta qoidalarining 4.5-bandida nazarda tutilgan xarajatlarga ko‘ra ilgari amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari ayirib tashlagan holda sug‘urta pulidan ortiq bo‘lmagan miqdorda.

Sug‘urtalovchi shuningdek Sug‘urta qoidalarining mazkur bandi shartlariga rioya qilgan holda sug‘urta qilingan TV ga sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi natijasida yetkazilgan, hujjat bilan tasdiqlangan va ta‘mirlash-tiklash ishlari jarayonida aniqlangan yashirin shikastlanishlarni bartaraf qilish bilan bog‘liq xarajatlarni ham qoplaydi.

9.3. Agar ushbu Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha sug‘urta puli sug‘urta qilingan TV ning Sug‘urta qoidalarini tuzilgan sanasidagi sug‘urta qiymatidan past belgilangan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganida Sug‘urta qildiruvchiga/Qarz oluvchiga yetkazilgan zararlarni o‘rnini O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasiga ko‘ra sug‘urta pulining sug‘urta qiymatiga nisbatiga proporsional ravishda qoplab beradi.

9.4. Agar sug‘urta hodisasi to‘lash muddati o‘tib ketgan navbatdagi sug‘urta badali to‘lanishiga qadar yuzaga kelgan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha Sug‘urta tovonining to‘lanishi kerak bo‘lgan miqdorini unga to‘langan sug‘urta mukofotining qismiga mutanosib bo‘lgan summa bilan cheklashga va to‘lanishi kechiktirilgan sug‘urta badali summasini hisobga olishga haqli.

9.5. Ushbu Sug‘urta qoidalarini bo‘yicha sug‘urta tovonini to‘lash sug‘urta hodisasi e‘tirof etilgan va Sug‘urta hodisasi to‘g‘risida dalolatnoma imzolangan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida pul mablag‘larini oluvchining bank hisob raqamiga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Sug‘urtalovchining bankdagi hisob raqamiga pul mablag‘lari o‘tkazilgan kun sug‘urta tovonini to‘langan kun deb hisoblanadi.

9.6. Agar zarar summasi sug‘urta hodisasi yuzaga kelishida aybdor bo‘lgan shaxs tomonidan to‘liq qoplangan bo‘lsa, Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi sug‘urta tovoniga bo‘lgan o‘z huquqini yo‘qotadi.

9.7. Sug‘urta qilingan TV ga yetkazilgan zararni o‘rnini qoplash yuzasidan Sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshirilgan sug‘urta tovonining har bir to‘lovi, agar Sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta pulini tiklash uchun qo‘shimcha sug‘urta mukofoti to‘lanmasa, sug‘urta pulini (Sug‘urtalovchi majburiyatlarining limitini) bunday to‘lov summasiga kamaytiradi.

9.8. Sug‘urta tovonini to‘lanishi oqibatida Sug‘urtalovchi majburiyatlari limitini kamayishi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasi talablarini inobatga olgan holda keyingi sug‘urta tovonini to‘lash uchun asos bo‘lmaydi.

“Avtokredit” Sug‘urta qoidalarini

9.9. Sug‘urta qilingan TV ga yetkazilgan zararni o‘rnini qoplash yuzasidan sug‘urta to‘langan taqdirda, Sug‘urtalovchi sug‘urta qilingan TV ning shikastlangan qismini talab qilib olish huquqiga ega.

9.10. Sug‘urta qilingan TV Sug‘urta qildiruvchi foydasida garovda bo‘lib, unga zarar yetgan bo‘lsa, Sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalangan TV yetkazilgan zararni qoplab berish talabi bilan Sug‘urtalovchiga ariza berish huquqiga ega. Bunday vaziyatda, to‘lab beriladigan sug‘urta to‘voni Sug‘urtalovchi bilan kelishgan holda, Sug‘urta qildiruvchi Qarzdorning krediti bo‘yicha qarzini qoplashga yo‘naltiriladi.

10-BO‘LIM. SUBROGATSIYA

10.1. Kredit shartnomasiga ko‘ra kreditni so‘ndirish majburiyatini olgan Qarz oluvchidan talab qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga muvofiq ushbu Sug‘urta qoidalarining 3.1-bandi “a” kichik bandida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi natijasida yuz bergan Sug‘urta qildiruvchining zararini qoplash hisobiga sug‘urta to‘vonini to‘liq yoki qisman to‘lagan Sug‘urtalovchiga u tomondan to‘langan summa doirasida o‘tadi.

10.2. Yetkazilgan zararda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga muvofiq ushbu Sug‘urta qoidalarining 3.1-bandi “b” kichik bandida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi natijasida sug‘urta qilingan TV ga yetkazilgan zararni qoplash hisobiga sug‘urta to‘vonini to‘liq yoki qisman to‘lagan Sug‘urtalovchiga u tomondan to‘langan summa doirasida o‘tadi, bundan Qarz oluvchi yoki sug‘urta qilingan TV ni boshqarish belgilangan tartibda ruxsat berilgan boshqa shaxslar aybdor shaxs bo‘lgan hollar mustasno.

10.3. Sug‘urta qildiruvchi va/yoki Qarz oluvchi Sug‘urtalovchiga barcha hujjatlar va dalillarni berishi hamda Sug‘urtalovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasi talablariga binoan unga o‘tgan huquqni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni Sug‘urtalovchiga xabar qilishi shart.

10.4. Agar Qarz oluvchi yoki sug‘urta qilingan TV ni boshqarish ruxsat berilgan boshqa shaxs Sug‘urtalovchi tomonidan qoplangan zararda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki ushbu huquqni amalga oshirish ularning aybi bilan mumkin bo‘lmasa, Sug‘urtalovchi sug‘urta to‘vonini to‘lashdan to‘liq yoki tegishli qismida ozod etiladi va sug‘urta to‘vonining to‘langan summasi qaytarib berilishini talab qilishga haqli.

11-BO‘LIM. SUG‘URTA SHARTNOMASINI (POLISINI) BEKOR QILISH VA TUGATISH TARTIBI

11.1. Ushbu Sug‘urta qoidalariga ko‘ra rasmiylashtirilgan Sug‘urta polisi taraflardan birining yozma arizasiga ko‘ra bekor qilinishi mumkin. Sug‘urta polisini bekor qilish uchun barcha taraflarning roziligi talab qilinadi. Sug‘urta polisi taraflar o‘rtasida bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv bitimi imzolanganidan so‘ng bekor bo‘ladi.

11.2. Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi ushbu Sug‘urta qoidalarini shartlarini Sug‘urtalovchi buzgani sababli muddatidan ilgari bekor qilishni so‘raganda, Sug‘urtalovchi sug‘urta mukofotining bir qismini sug‘urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

11.3. Sug‘urta qildiruvchining o‘z majburiyatlarini buzishdan kelib chiqqan holda Sug‘urtalovchi ushbu Sug‘urta qoidalarini muddatidan ilgari bekor qilishni talab qilganida, to‘langan sug‘urta mukofoti qaytarilmaydi.

11.4. Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchi kreditning muddatidan oldin to‘liq so‘ndirilishi munosabati bilan yoki ushbu Sug‘urta qoidalarida nazarda tutilmagan boshqa holatlar bo‘yicha Sug‘urta qoidalariga ko‘ra rasmiylashtirilgan Sug‘urta polisini muddatidan oldin bekor qilish to‘g‘risida talab qilgan taqdirda, sug‘urta qoidasining 3.1 bandi “a” kichik bandi bilan nazarda tutilgan holatlar bo‘yicha sug‘urta mukofoti qaytarilmaydi va 3.1 bandi “b” kichik bandi bilan nazarda tutilgan holatlar bo‘yicha sug‘urta mukofoti Sug‘urtalovchining xarajatlarini to‘langan sug‘urta mukofotining 25 foizi miqdorida chiqarib tashlangan holda sug‘urta mukofotining qolgan summasidan sug‘urta davrining tugamagan qismiga mutanosib ravishda qaytarilishi mumkin.

“Avtokredit” Sug’urta qoidolari

11.5. Agar ushbu Sug’urta qoidolari bo’yicha Sug’urtalovchi sug’urta tovonini bunday to’lov summasidan qat’iy nazar to’lagan bo’lsa yoki unda sug’urta hodisasi yuz berishi munosabati bilan sug’urta tovonini to’lashga doir majburiyat bo’lsa, har qanday holda ham sug’urta mukofoti qaytarilmaydi.

11.7. Ushbu Sug’urta qoidolari, sug’urta shartnoma(polis)lari quyidagi hollarda tugatiladi:

- a) amal qilish muddati tugaganida;
- b) Sug’urtalovchi tomonidan majburiyatlarini Sug’urta qildiruvchi, Qarz oluvchi oldida to’liq hajmda bajarilganida;
- v) qoida taraflarining kelishuvi bo’yicha;
- g) sug’urtalash davri tugaganda;
- d) Sug’urta mukofoti belgilangan muddatda to’lanmasa, yoki sug’urta mukofotining navbatdagi qismi Elektron sug’urta polisi bilan belgilangan muddat va tartibda to’lanmasa;
- ye) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

12-BO‘LIM. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

12.1. Taraflar o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo’ladi.

12.2. Sug’urta qildiruvchiga to’lanadigan sug’urta to’lovini kechiktirgani uchun Sug’urtalovchi Sug’urta qildiruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan summaning 0,2% miqdorida, ammo ushbu Sug’urta qoidolari bo’yicha to’lanishi lozim bo’lgan summaning 50% dan ortiq bo’lmagan holda penya to’laydi. Penyaning to’lanishi Sug’urtalovchini sug’urta tovonini to’lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

12.3. Sug’urtalovchi, Sug’urta qildiruvchi va Qarz oluvchi ma’lumotlarni oshkor qilmaslik haqida javobgar bo’ladi va ushbu Sug’urta qoidolari, ilovalar va mazkur Sug’urta qoidolari bilan bog’liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tarafning dastlabki tarzda olingan yozma rozilgisiz har qanday uchinchi tarafga oshkor qilmaydi.

13-BO‘LIM. FORS-MAJOR HOLATI

13.1. Taraflar fors-major holatlar amal qilishi davrida ushbu Sug’urta qoidolari bo’yicha o‘z majburiyatlarini qisman yoki to’liq bajarmaganliklari uchun javobgar bo’lmaydi.

13.2. Fors-major holatlarga tabiiy hodisalar (zilzilalar, yer ko’chishlari, dovullar, qurg’oqchiliklar va Sug’urta qoidalarida nazarda tutilmagan sanab o’tilmagan boshqa tabiiy ofatlar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlari tomonidan qo’yilgan yoki davlatlar o’rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi chora-tadbirlar, shuningdek hukumat qarorlari va boshqalar), agar ular Sug’urta qoidalarini bajarilishiga bevosita ta’sir qilgan bo’lsa) keltirib chiqargan favqulodda, bartaraf qilib bo’lmaydigan va ushbu sharoitlarda nazarda tutib bo’lmaydigan holatlar taalluqli bo’ladi.

13.3. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar tomonidan majburiyatlarni bajarilishi muddati fors-major holatlar amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda keyinga qoldiriladi. Bunda Taraflar belgilangan tartibda ushbu Sug’urta qoidolari bo’yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlar bo’yicha yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradi.

14-BO‘LIM. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Ushbu Sug’urta qoidolari shartlarini o’zgartirish Sug’urtalovchi va Sug’urta qildiruvchining kelishuvi bo’yicha amalga oshirilishi mumkin. Ushbu Sug’urta qoidolari shartlarini o’zgartirish haqidagi bitim yozma shaklda amalga oshiriladi.

14.2. Ushbu Sug’urta qoidalarining shartlari o’zgargan taqdirda, majburiyatlar ushbu Sug’urta qoidolari o’zgarganligi haqidagi yozma kelishuvda bayon qilingan sanadan e’tiboran o’zgartirilgan deb hisoblanadi.

“Avtokredit” Sug‘urta qoidolari

14.3. Ushbu Sug‘urta qoidolari bo‘yicha huquq va majburiyatlarni Taraflarning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

14.4. Ushbu Sug‘urta qoidalarida bayon qilinmagan barcha holatlarda Taraflar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

14.5. Ushbu Sug‘urta qoidalaridan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal qilinadi.

14.6. Sug‘urta shartnomasi taraflari, shuningdek har bir tarafning vakillari yoki xodimlari ushbu Sug‘urta qoidolari yuzasidan firmaga taalluqli yoki oshkor qilinmaydigan axborotni har bir tarafning dastlabki tarzda olingan yozma rozilgisiz ochib bermaydi.

14.7. Ushbu Sug‘urta qoidolari bir xil kuchga ega ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ularning biri Sug‘urtalovchida ikkinchisi esa Sug‘urta qildiruvchida saqlanadi.

14.8 Kredit muddatidan avval so‘ndirilgan xolatda qarz oluvchi naf oluvchi bo‘lib xisoblanadi

14.9 Mulk egasi o‘zgarmagan xolda davlat raqam belgisi o‘zgarganda xamda qonunchilikda ruxsat etilgan xar qanday qayta jixozlash natijasida yoki boshqa sabablarga ko‘ra TVnig tex pasporti o‘zgargan taqdirda xam ushbu shartnoma va sugurta polisi o‘z kuchida qoladi

SUG‘URTALOVCHINING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

"MY-INSURANCE" AЖ CT

Elektron pochta manzili: info@myinsurance.uz

Manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani, kichik Mirobod ko‘chasi, 95-uy

X/R: 20208000104786066011

Bank: "Hamkorbank" ATB bosh ofisi

MFO: 00083

INN: 207 002 342, OKED: 96220

“Avtokredit” Sug‘urta qoidolari

«Avtokredit» Sug‘urta qoidalariga1-ilova

“AVTOKREDITLARNI SUG‘URTA QILISH” POL_SERY POL_NUM-SONLI ELEKTRON POLISI

"MY-INSURANCE" AЖ CT hamda “Hamkorbank” ATB bilan Bosh kelishuvga asosan kelishilgan “Avtokreditlarni sug‘urta qilish” sug‘urta qoidalariga (bundan buyon matnda – Sug‘urta qoidolari deb yuritiladi) muvofiq quyidagilarga sug‘urta himoyasini taqdim etayotganini tasdiqlaydi:

1.	Sug‘urta qildiruvchi:	DOG_BANK_NAME
2.	Qarz oluvchi:	OWN_UZ
3.	Kredit shartnomasi:	CREDIT_DOGDATE yildagi CREDIT_DOGNUM-sonli
4.	Kredit qaytarilmasligi tavakkalchiligi bo‘yicha sug‘urta puli:	CREDIT_SUM (CREDIT_SUM_UZ) so‘m
5.	TV ning yo‘qotilishi yoki zararlanishi bo‘yicha sug‘urta puli:	CREDIT_SUM (CREDIT_SUM_UZ) so‘m
6.	TV ning sug‘urta qiymati:	CREDIT_SUM (CREDIT_SUM_UZ) so‘m
7.	Kredit qaytarilmasligi tavakkalchiligi bo‘yicha sug‘urta davri:	DOG_BEG_UZ yildan DOG_END_UZ yilgacha
8.	TV ning yo‘qotilishi yoki zararlanishi bo‘yicha sug‘urta davri:	DOG_BEG_UZ yildan DOG_END_UZ yilgacha
9.	Sug‘urta mukofoti:	DOG_PREM (DOG_PREM_UZ) so‘m
10.	Mazkur shartnomada (polisda) bayon qilinmagan barcha shartlar “Avtokreditlarni sug‘urta qilish” sug‘urta qoidalarida belgilangan qoidalar asosida tartibga solinadi.	

"MY-INSURANCE" AЖ CTning sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha majburiyatlari sug‘urta mukofotini yoki uning qismini o‘z vaqtida to‘lash sharti bilan DOG_BEG_UZ yildan boshlab kuchga kiradi va DOG_END_UZ yilgacha amal qiladi.

Sug‘urtalovchi nomidan:

OWN_BANK

POL_QR_CHECK

OWN_DIREKTOR

Ushbu sug‘urta shartnoma(polisi)si rasmiylashtish uchun ariza bergunimga qadar “Avtokreditlarni sug‘urta qilish” sug‘urta qoidolari menga taqdim etildi. Men ushbu sug‘urta qoidalariga bilan to‘liq tanishib chiqdim va “Avtokreditlarni sug‘urta qilish” sug‘urta qoidadalaridagi shartlar menga to‘liq to‘g‘ri keladi. Kelgusida mazkur qoidalar yuzasidan huquqlar, majburiyatlar tartibga solinishiga roziman va xech qanday e‘tirozim yo‘q. Qarz oluvchi / Sug‘urta qildiruvchi

(FIO va imzo agar yuridik shaxs bo‘lsa korxona nomi va vakolatli shaxs imzosi, muxri))

Polis berilgan sana: POL_VIDAN yil.

“Avtokredit” Sug‘urta qoidalari

«Avtokredit» Sug‘urta qoidalariga 2-ilova

“AVTOKREDIT” SUG‘URTALASH BO‘YICHA SUG‘URTA TARIFI

"MY-INSURANCE" AЖ CT hamda “Hamkorbank” ATB bilan Bosh kelishuvga asosan kelishilgan «Avtokredit» sug‘urtalash qoidalariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchi tomonidan Sug‘rtalovchiga to‘lab beriladigan sug‘urta mukofotini hisoblab chiqishda qo‘llaniladigan sug‘urta tarifi:

T/r.	Sug‘urta qaltisligi	Shartli sug‘urta tarifi* (%)	Hisoblash davri
1.	Sug‘urta qoidalarining 3-Bo‘lim, 3.1-bandi, a) kichik bandiga asosan	1,0	yillik
2.	Sug‘urta qoidalarining 3-Bo‘lim, 3.1-bandi, b) kichik bandiga asosan	1,0	yillik

Maxsus shart:

T/r.	Sug‘urta amal qilish davri	Shartli sug‘urta tarifi* (%)	Hisoblash davri
1.	3-yildan kam bo‘lmaganda	1,0	yillik
2.	4-yildan kam bo‘lmaganda	0,75	yillik
3.	5-yildan kam bo‘lmaganda	0,6	yillik

**Sug‘urta tarifi tomonlar kelishuviga ko‘ra ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin*

_____ SK
Raxbari _____ ga
Kredit oluvchi _____ dan

**“AVTOKREDIT” SUG‘URTALASH QOIDALARIDA BELGILANGAN SHARTLARDA SUG‘URTA
(POLISI)NI TUZISH UCHUN
ARIZA – SO‘ROVNOMA**

Ushbu Ariza-so‘rovnoma bilan Sizdan quyidagi ma’lumotlar asosida sug‘urta shartnomasini tuzishingizni so‘rayman.

1.	Kredit oluvchi / Sug‘urta qildiruvchi	_____ FIO _____
2.	Kredit oluvchining familiyasi, Ismi va Otasining ismi: Pasport ma’lumotlari: Mobil telefon raqami: Yashash manlisi:	_____ _____ _____ _____
3.	Kredit shartnomasi:	20__ yil “__” _____dagi ____-sonli shartnoma
4.	Kredit summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
5.	Kredit muddati:	20__ yil “__” _____dan 20__ yil “__” _____gacha
6.	Kredit maqsadi:	_____
7.	Avtosalon nomi va manzili (agar TV avtosalonidan olinayotgan bo‘lsa)	20__ yil “__” _____dan 20__ yil “__” _____gacha Oxirgi kuni kirgan xolda
8.	Sug‘urtalash shartnomasi (polisi) ning amal qilish muddati:	20__ yil “__” _____dan 20__ yil “__” _____gacha oxirgi kuni kirgan xolda
9.	Sotib olinayotgan TV ning bozor (avtosalonidagi) qiymati:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
10.	Kredit qaytmastlik xatari bo‘yicha sug‘urta summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
11.	TV shikastlanishi yoki nobud bo‘lishi hatari bo‘yicha sug‘urta summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
12.	Sug‘urta mukofoti miqdori	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)

Ushbu Ariza-So‘rovnomada ko‘rsatilgan barcha ma’lumotlar haqqoniyligi va ishonchliligi tasdiqlayman.

Kredit oluvchi / _____ **FIO** _____
Sug‘urta qildiruvchi: _____ (imzo) _____ (sana)

Ushbu Ariza-So‘rovnomani imzolar ekanman, “_____” SK tomonidan tasdiqlangan “Avtokredit” sug‘urtalash qoidalarini (keyinchalik matnda – Sug‘urtalash qoidalarini deb yuritiladi) u bilan tanishganimni, Sug‘urtalash qoidalarining qog‘ozda asli va elektron nusxasini olganimni va Sug‘urtalash qoidalarini shartlariga o‘z roziligimni bildiraman va tasdiqlayman.

(Kredit oluvchining Familiyasi, Ismi va Otasining ismi)

(imzo)

(sana)